



THE FORMATION OF NEOLOGISMS IN THE FRENCH LANGUAGE AS A RESULT OF NEW CONCEPTS SHAPED BY THE POLITICAL IDEAS OF FORMER FRENCH PRESIDENT NICOLAS SARKOZY

Turaeva Maftuna Akbar qizi

Doctoral student of Samarkand State Institute of Foreign Languages
Samarkand, Uzbekistan. maftuna-t@samdchti.uz
<https://doi.org/10.5281/zenodo.15275930>

ARTICLE INFO

Received: 19th April 2025
Accepted: 23rd April 2025
Online: 24th April 2025

KEYWORDS

Neologisms, neosemies,
neoconcept, sarkozysme,
sarkozyste, sarkozettes
etc.

ABSTRACT

The article analyzes the linguistic phenomenon — the “Sarkozism” phenomenon — formed based on the speeches of former French president Nicolas Sarkozy. This phenomenon reflects the emergence of new neologisms through lexical errors and distinctive expressions in political discourse. In particular, units such as “Sarkozettes” (a term denoting female supporters) and “méprisance” (a word created from a lexical mistake) were developed in connection with Sarkozy’s personality and political style, and are actively used in political speech and mass media. The study focuses on the formation process of these neologisms, their semantic and stylistic features, as well as revealing the place of the Sarkozism phenomenon within linguistic and sociolinguistic contexts.

ФОРМИРОВАНИЕ НЕОЛОГИЗМОВ ВО ФРАНЦУЗСКОМ ЯЗЫКЕ КАК РЕЗУЛЬТАТ НОВЫХ КОНЦЕПТОВ, СОЗДАНЫХ ПОД ВЛИЯНИЕМ ПОЛИТИЧЕСКИХ ИДЕЙ БЫВШЕГО ПРЕЗИДЕНТА ФРАНЦИИ НИКОЛЯ САРКОЗИ

Тураева Мафтуна Акбаровна

Докторант Самаркандского государственного института иностранных языков
Самарканд, Узбекистан
maftuna-t@samdchti.uz
<https://doi.org/10.5281/zenodo.15275930>

ARTICLE INFO

Received: 19th April 2025
Accepted: 23rd April 2025
Online: 24th April 2025

KEYWORDS

Неологизмы,
неоконцепт, Никола
Саркози, Сарказизм,
Саркозист, Саркозэт и
др.

ABSTRACT

В статье анализируется лингвистическое явление — феномен «сарказизма», сформировавшийся на основе речей бывшего президента Франции Николя Саркози. Это явление отражает появление новых неологизмов посредством лексических ошибок и своеобразных выражений в политической речи. В частности, такие единицы, как «Sarkozettes» (термин, обозначающий женщин-сторонниц) и «méprisance» (слово, возникшее из лексической ошибки), были созданы в связи с личностью и стилем Саркози и активно используются в политическом дискурсе и средствах массовой информации. Исследование направлено на анализ процесса формирования этих



неологизмов, их семантических и стилистических особенностей, а также на определение места феномена сарказма в лингвистике и социолингвистическом контексте.

FRANSUZ TILIDAGI NEOLOGIZMLARNING SHAKLLANISHI — SOBIQ FRANSIYA PREZIDENTI NICOLAS SARKOZYNING SIYOSIY G'OYALARI ASOSIDA YARATILGAN YANGI KONSEPTLAR NATIJASI SIFATIDA

To'rayeva Maftuna Akbar qizi

Samarqand Davlat Chet Tillar Instituti tayanch doktoranti

Samarqand, O'zbekiston

maftuna-t@samdchti.uz

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15275930>

ARTICLE INFO

Received: 19th April 2025

Accepted: 23rd April 2025

Online: 24th April 2025

KEYWORDS

Neologizmlar,

neokonsept,

Sarkozy,

sarkozyste,

va h.z.

Nicolas

sarkozysme,

sarkozettes,

ABSTRACT

Maqolada Fransiya sobiq prezidenti Nicolas Sarkozy nutqlari asosida shakllangan lingvistik hodisa — "sarkozysme" fenomeni tahlil qilinadi. Ushbu hodisa siyosiy nutqdagi leksik xatolar va o'ziga xos iboralar orqali yangi neologizmlarning paydo bo'lishini aks ettiradi. Jumladan, "Sarkozettes" (ayol tarafdorlarini ifodalovchi atama) va "méprisance" (leksik xato orqali yuzaga kelgan so'z) kabi birliklar Sarkozy shaxsi va siyosiy uslubiga bog'liq holda yaratilgan bo'lib, ular siyosiy nutq, ommaviy axborot vositalarida faol qo'llaniladi. Tadqiqot ushbu neologizmlarning shakllanish jarayoni, semantik va stilistik xususiyatlari hamda sarkozysme fenomenining tilshunoslik va ijtimoiy-lingvistik kontekstdagi o'rnini ochib beradi.

Kirish (Introduction). Til va siyosat o'zaro chambarchas bog'liq hodisalar hisoblanadi. Siyosatchilarning ommaviy chiqishlarida qo'llanilgan nutqlar ko'plab yangi so'zlarning yaratilishiga sabab bo'ladi. Ba'zi hollarda esa siyosiy liderlar, o'z nutqidagi tildagi leksik xatolar ham yangi so'zlarning yuzaga kelishiga sabab bo'ladi. Ayniqsa, Fransiya sobiq prezidenti Nicolas Sarkozy nutqi tahliliga e'tibor qaratilganda, uning leksik xatolari tilshunoslikda yangi fenomen — "sarkozysme" deb nomlangan hodisani yuzaga keltirgan. Mazkur maqolada Sarkozy yuritgan siyosatning tilda yangi tushunchalarning yaratilishiga turtki bo'lganini tahlil qilamiz. Bundan tashqari, Sarkozy nutqidagi leksik xatolarni tahlil qilish, ularning yangi so'zlarning yasaliş jarayonidagi o'rnini aniqlash va ijtimoiy-lingvistik ahamiyatini ochib berish maqsad qilingan.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (Literature review).

Til va siyosatning o'zaro bog'liqligi masalasi lingvistika va siyosatshunoslik sohalarida keng tadqiq etilgan. [1] Siyosatchilarning nutqida paydo bo'ladigan yangi so'zlar va iboralar ko'pincha ijtimoiy hayotning o'zgarishlari, siyosiy jarayonlar hamda madaniy kontekst bilan



chambarchas bog'liqdir. Shuningdek, siyosatchilarning nutqidagi leksik xatolar va ularning tilga ta'siri haqida [2] ham bir qator ilmiy izlanishlar mavjud. Masalan, Fransiya sobiq prezidenti Nicolas Sarkozy nutqidagi xatolar va ular asosida yuzaga kelgan yangi leksik birliklar Louis-Jean Calvet et Jean Véronis kabi lingvistlar tomonidan o'rganilib, monografiya chop etilgan. [6] Bu fenomen siyosiy lider nutqining tilshunoslikdagi yangicha ko'rinishi sifatida qaraladi va leksik xatolar orqali yangi ma'nolar, frazeologik birliklar va metaforalar paydo bo'lishini ko'rsatadi.

Til va siyosat o'rtasidagi munosabatni tahlil qilgan tadqiqotlarda, jumladan, Christian Baylon va Xavier Mignot asarlarida, [1] siyosiy diskurs tilning ijtimoiy funksiyasini ko'rsatishda muhim ahamiyatga ega ekanligi ta'kidlanadi. Siyosiy nutqda yangi tushunchalar va leksik birliklar yaratish orqali jamiyatda siyosiy ong shakllanadi va kengayadi.

Bundan tashqari, yangi so'zlarning yaratilishi va ularning ommaviy nutqda tarqalishi jarayonini o'rganishda kognitiv lingvistika yondashuvlari ham muhim o'rin tutadi [4]. Bu yondashuv tilning siyosiy ma'noda yangi leksik birliklarning hosil bo'lish mexanizmlarini ochib beradi. [8]

Shuningdek, sarkozismelar misolida ko'rilgandek, siyosiy nutqdagi leksik xatolar [5] ko'pincha ijtimoiy tarmoqda va ommaviy axborot vositalarida keng tarqalib, yangi til fenomenlariga aylanishi haqida ruminiyalik tilshunos Eugenia Aalaman [3] kabi tadqiqotchilar fikr bildirishgan.

Umuman olganda, til va siyosat o'rtasidagi o'zaro ta'sir, siyosiy liderlar nutqida yuzaga kelgan yangi leksik birliklar va ularning jamiyatdagi aks-sadosi [2] bugungi kunda lingvistik va ijtimoiy tadqiqotlarning dolzarb mavzularidan biri bo'lib qolmoqda. Shu munosabat bilan, Sarkozy nutqidagi sarkozizmlar fenomeni [7] tilshunoslikda yangi tadqiqotlar uchun boy material hisoblanadi.

Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology).

Ushbu maqolada Sarkozy nutqidagi ba'zi leksik xatolar va ularning yangi so'zlarning yuzaga kelish jarayonidagi o'rni tahlil qilinadi. Tadqiqotda sifatli va miqdoriy metodlarning integratsiyasi asos qilib olingan.

Avvalambor, ma'lumotlarni yig'ish uchun asosiy manba sifatida Nicolas Sarkozyning ommaviy nutqlari, intervyulari va rasmiy chiqishlari ko'zdan kechirildi. Bu nutqlar orasidan notanish so'zlar, neologizmlar va "sarkozizmlar" aniqlandi va yig'ildi. Shuningdek, Sarkozy siyosati to'g'risidagi maqolalar jamlanib, unga bergan ta'riflar o'rganib chiqildi. Yig'ilgan korpus yordamida leksik xatolar va yangi so'zlarning semantik va pragmatik xususiyatlarini aniqlash uchun kognitiv lingvistik yondashuvlar qo'llanildi. Bu yondashuv orqali yangi so'zlarning shakllanish mexanizmlari, ularning ma'nosi va siyosiy kontekstdagi funksiyasi o'rganildi. Shuningdek, frazeologik va stilistik tahlil usullari yordamida "sarkozizmlar"ning nutqdagi o'rni va ularning tilga ta'siri ko'rib chiqildi.

Uchinchidan, yangi leksik birliklarning ijtimoiy-lingvistik ahamiyatini aniqlash uchun ommaviy axborot vositalari (matbuot, televideniye, internet resurslari)dagi tarqalish darajasi va ularning jamiyatdagi qabul qilinishi o'rganiladi. Bu qismda kvantitativ tahlil usullari, jumladan, statistik hisob-kitoblar qo'llaniladi.



Tadqiqot jarayonida kompyuter lingvistikasi vositalari, masalan, matnlarni avtomatik tahlil qilish va leksik xatolarni aniqlash uchun maxsus dasturlar ham qo'llanilishi mumkin. Bu usul ma'lumotlarning aniq va samarali tahlilini ta'minlaydi.

Tahlil va natijalar (Analysis and results). XXI asr neokonseptlarini o'rganish jarayonida siyosat sohasida bo'layotgan o'zgarishlarni aks etuvchi turli tuman yangi tasvirlarga duch keldik. O'rganish ob'yektimiz Fransiyada iqtisodiy va ijtimoiy muammolarni yoritib beruvchi konseptlar hisoblansa, eng ko'p yangi tasvirlar siyosiy liderlar bilan bog'liqdir. Ushbu konseptlar yaratishiga sabab bo'lgan siyosiy yetakchilardan biri, Fransiyaning sobiq Prezidenti Nicolas Sarkozy bo'lib, u 2007-2012-yillarga saylangan. Nicolas Sarkozy boshqarish uslubi va hamkorlik aloqalari, hamda o'z nutqida ko'p xato qilishi bilan tanilgan. Uning siyosiy qarashlari, boshqaruv uslubi va jamoat bilan muloqot qilish yondashuvini «sarkozysme» termini ifodalaydi. Ushbu siyosiy model kuchli va markazlashgan prezidentlik hokimiyatiga asoslangan bo'lib, davlat rahbarining barcha jarayonlarda bevosita ishtirok etishini targ'ib qiladi. Sarkozysme nafaqat siyosiy strategiya, balki ijtimoiy psixologiyaga ta'sir etuvchi kommunikativ uslub [7] sifatida ham ko'riladi. Sarkozysme shuningdek, «shaxsga asoslangan siyosiy brend» bo'lib, prezidentning ommaviy axborot vositalarida faol ishtiroki, tezkor bayonotlar berishi va populistik ohangdagi nutqlari orqali xalq bilan bevosita aloqani mustahkamlashga qaratilgan edi. Bu uslub ko'plab ijobiy baholar bilan bir qatorda, jamiyatda keskinlik va ijtimoiy tabaqalanishni kuchaytirganlikda ham tanqid qilingan.

Xulosa qilib aytganda, Sarkozysme — bu an'anaviy siyosiy partiyalar chegarasidan tashqariga chiqib, lider shaxsiyati va uning kommunikativ uslubi atrofida shakllangan zamonaviy boshqaruv modeli bo'lib, u Fransiya siyosiy tarixida muhim iz qoldirgan. Shu sababdan, 500 dan ortiq neologizmlar yaratilishiga [3] sabab bo'lgan. Misol uchun, sarkozysme, sarkozyste, sarkozyste, sarkozettes, sarkologie, sarkoisation, merkozy va h.z. Ularning orasida eng ko'p qo'llanilgan neologizmlar tanqid qilish uchun ishlatilgan neologizmlardir. Misol uchun, «**Sarkozettes**» atamasi 2007-yildan keyin, Nicolas Sarkozy Fransiya prezidenti bo'lganidan so'ng paydo bo'lgan va ko'proq jurnalistlar hamda siyosiy sharhlovchilar tomonidan ishlatilgan. U o'z hukumatida ko'plab yosh va zamonaviy ayol siyosatchilarni yuqori lavozimlarga tayinlagan. Ayniqsa, ularning ba'zilar muhojirlik kelib chiqishiga ega bo'lgani va ilgari hukumat tarkibida bunday xilma-xillik unchalik keng ko'rinmaganligi uchun e'tiborni tortadi. Bu atama bir tomondan ijobiy ma'noda – «Sarkozyning zamonaviy, dinamik, yosh va faol ayol siyosatchilari» degan ma'noni anglatgan bo'lsa, boshqa tomondan, tanqidiy ohangga, kinoyali ma'noga ham ega. Misol uchun, *Le journal du dimanche* jurnali muharriri Michèle Stouvenotning 2023-yil 19-yanvardagi maqolasida Sarkozy tarafdorlari ma'nosida qo'llanilgan :

Les «sarkozettes» contre-attaquent ! ... Les «Sarkozettes» dégainent. Après Rachida Dati qui accuse Jean-Louis Borloo de "ronfler" et de puer des pieds, Rama Yade qui flingue Nicolas Sarkozy -elle avait posé "trois conditions" à sa venue aux J.O de Pékin avant d'avoir à démentir, c'est Nathalie Kosisuko-Morizet qui tire à vue. (o'zbek tilida tarjimasini : Sarkozetchalar hujumga o'tmoqda!.. «Sarkozetchalar» endi jim turmayapti. Birin-ketin siyosiy sahnaga chiqib, o'z pozitsiyasini dadil ifoda etmoqda. Avvaliga Rachida Dati Jan-Lui Borloni nafaqat «xorillaganlikda», balki oyoqlarining badbo'y hidida aybladi. So'ngra Rama Yade sahnaga chiqdi — u Pekin Olimpiadasiga borish uchun Sarkozyga uchta shart qo'yganini e'lon qildi, keyinchalik



esa bu bayonotini inkor etishga majbur bo'ldi. Endilikda esa navbat Nathalie Kosciusko-Morizetga keldi — u esa, ko'p gapni ortiqcha deb topib, to'g'ridan-to'g'ri «o'q uzmoqda».[11]

Ko'plab muxolif siyosatchilar va ba'zi ommaviy axborot vositalari bu ayollarni mustaqil emas, balki faqat Sarkozy siyosatini qo'llab-quvvatlovchi shaxslar deb tasvirlagan. Shuningdek, bu konsept ayollar huquqini himoya qilish doiralarda ham bahs-munozaraga sabab bo'lgan. Ba'zilar buni ayollarning siyosatda ko'proq ishtirok etishining belgisi deb ko'rgan bo'lsa, boshqalar «Sarkozettes» so'zi ayollarni jiddiy qabul qilmaslik yoki ularning shaxsiy yutuqlarini kamsitish uchun ishlatilayotganini tanqid qilgan.

Bundan tashqari Sarkozy nutqidagi leksik xatolari bilan boshqa prezidentlardan farqlanib nomini tarixda qoldirgan. Fransuz matbuotida va lingvistik tadqiqotlarda Nicolas Sarkozy nutqidagi leksik xatolar ko'pincha mavjud so'zlarni noto'g'ri shaklda qo'llash, morfologik buzilishlar, nomaqbul so'z yasashlar, ikki so'z birikmasidan yangi, g'ayrioddiy so'z yasash kabi holatlar orqali namoyon bo'ladi.

Ushbu yangi so'z ko'plab ijtimoiy muhokamalar va hazil-mutoyiba ob'yekti bo'lgan bo'lsa-da, fransuz neologiyasida yangi so'z yasashning ijodiy namunasi sifatida baholangan.

Sarkozy nutqidagi bunday xatolar lingvistik jihatdan neologizm yasashning o'ziga xos usuli sifatida qaraladi. Tilshunoslar bu jarayonni «mot-valise» — so'z chamadoni (portmanteau) deb atashadi. Misollar:

Nafrat bilan munosabatda bo'lish ma'nosini anglatuvchi yangi termin «méprisance» («mépris» va «-ance»)ni 2012-yil Nantes shahrida saylov oldi uchrashuvida qo'llaydi : «*Je veux apporter des réponses. Oh, des réponses qu'on ne comprendra pas dans un certain nombre de cercles dirigeants. Des réponses qu'on va regarder avec cette... méprisance, cette attitude hautaine...*». [10]

Sarkozy leksik xatolari xalq orasida «sarkozysme» deb ataladigan til hodisasini yuzaga keltirdi. Bu hodisa ommaviy madaniyatda memlar, internet so'z o'yinlari va tilda so'z yasash tajribasini kuchaytirishga sabab bo'ldi.

Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations). Til va siyosat o'rtasidagi o'zaro aloqadorlik zamonaviy lingvistikaning dolzarb tadqiqot yo'nalishlaridan biri bo'lib, ayniqsa siyosiy liderlarning ommaviy nutqlari orqali yangi leksik birliklarning yuzaga kelish jarayonini chuqur tahlil qilish imkonini beradi. Ushbu maqolada Fransiyaning sobiq prezidenti Nicolas Sarkozy nutqi misolida siyosiy diskursning tildagi yangiliklarga qanday ta'sir ko'rsatayotgani ko'rsatildi.

Sarkozining leksik xatolari, u tomonidan ixtiyoriy yoki ixtiyorsiz ravishda yaratilgan yangi iboralar va neologizmlar lingvistikada "sarkozysme" konsepti sifatida qaralmoqda. Bu hodisa nafaqat tilshunoslar, balki jurnalistlar, siyosatshunoslar va ommaviy axborot vositalari tomonidan ham diqqat markazida bo'lib, jamiyatda til orqali shakllanuvchi siyosiy ong va madaniy jarayonlarni o'rganishda muhim rol o'ynaydi.

Tadqiqot davomida Sarkozy tomonidan yaratilishga sabab bo'lgan konseptlar tahlil qilindi. Ayniqsa, "Sarkozettes" kabi atamalar misolida siyosiy kommunikatsiyada jins, madaniy xilma-xillik va ommaviy qabul masalalari muhokama etildi.

Xulosa qilib aytganda, sarkozysmelar hodisasi siyosiy nutq orqali til boyishining, yangi so'zlar yaratilishining va ularning ijtimoiy ongda aks sado berishining yorqin namunasi sifatida baholanishi mumkin. Bu esa siyosiy leksik xatolarning ham til rivojiga ijobiy ta'sir ko'rsatishi



mumkinligini ko'rsatadi. Shu boisdan, «sarkozysme» fenomeni zamonaviy kognitiv tilshunoslik va sotsiolingvistika uchun istiqbolli tadqiqot ob'yekti bo'lib qolmoqda.

References:

1. Christian Baylon, Xavier Mignot ; La communication Publisher, Nathan, 1991 ; 399 pages
2. Diki, P. Les lapsus et les erreurs lexicales en politique. // Revue Française de Linguistique Appliquée. (2015).
3. Eugenia ALAMAN Considerations sur les néologismes et les expressions connotées politiquement Université « Dunărea de Jos » de Galați, Roumanie https://scholar.google.com/citations?view_op=view_citation&hl=fr&user=Z71GnqAAAAJ&citation_for_view=Z71GnqAAAAJ:WF5omc3nYNoC
4. Fauconnier, Gilles, and Mark Turner. "Conceptual blending, form and meaning." Recherches en communication 19 (2003): 57-86.
5. Gadet, F. « La variation sociale en français ». Paris: Ophrys. 2003
6. Louis-Jean CALVET et Jean VÉRONIS, Les mots de Nicolas Sarkozy, Paris, Seuil, 2008, pp. 175
7. Седых Аркадий Петрович. "Коммуникативный портрет Николая Саркози" Политическая лингвистика, no. 2, 2011, pp. 49-53.
8. Киселёв, Д. «Реализация концептуальной метафоры в прозаическом тексте». Иностранная филология: язык, литература, образование, вып. 2 (75), апрель 2020 г., сс. 5-13, https://inlibrary.uz/index.php/foreign_philology/article/view/1362.
9. Тураева, М. «Когнитивные основы новых слов во французском языке». Зарубежная лингвистика и лингводидактика, т. 2, вып. 4/S, октябрь 2024 г., сс. 313-8, doi:10.47689/2181-3701-vol2-iss4/S-pp313-318. <https://inscience.uz/index.php/foreign-linguistics/article/view/4876/version/4876>
10. <https://www.sudouest.fr/politique/nicolas-sarkozy/presidentielle-sarkozy-invente-la-meprisance-9228910.php>
11. <https://www.lejdd.fr/Politique/Les-sarkozettes-contre-attaquent-94694-3089201>